

**Qurbonov Murodjon Normamat o'g'li**

Termiz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

[murodjonkurbanoff550@gmail.com](mailto:murodjonkurbanoff550@gmail.com)

**Kalit so'zlar:** Surxon vohasi, Amudaryo, Sherobodaryo, To'polondaryo, okrug, Sangardak daryosi.

Surxondaryo vohasi O'zbekistonning eng janubida joylashgan. U o'z ichiga Surxon-Sherobod vodiysi va uning atrofini o'rab turgan tog'larni oladi. Surxondaryo sharqdan va shimoli sharqdan Bobotog' va Hisor tog'lari orqali Tojikiston bilan, shimoli g'arbda Qashqadaryo bilan chegaralanadi, chegara Chaqchar va Boysun tog'lari orqali o'tadi. G'arbda Turkmaniston bilan bo'lgan chegara Ko'hitang tog'ining suvayirg'ich qismidan o'tadi. Janubda chegara Afg'oniston bilan Amudaryo orqali o'tgan davlat chegarasiga to'g'ri keladi. Surxondaryoni shimol tomonidan Hisor tizmasi o'rab turadi. Bu tizmaning balandligi 4500-4600 metrga etadi. O'zbekistondagi eng baland cho'qqi — Hazrat Sulton (4643 m) ham shu tog'da joylashgan. Chaqchar tog'ining eng baland cho'qqisi Xuroson hisoblanib, 3749 metrga etadi. Boysuntog' ancha baland bo'lib, ayrim cho'qqilari shimoli sharqida 3700 metrga etadi. Boysuntog'ning janubi g'arbida Ko'hitang tog'i joylashgan. Ko'hitang janubi g'arbiga 50 km cho'zilgan va balandligi 3137 metrga etadi. Boysuntog'ning sharqida unga yonma-yon holda Surxontog' joylashgan, u qisqa, lekin ancha baland (3882 m) tog'dir. Bu tog'ning janubida Sherobod-Sariqamish past tog'lari (1126 m) joylashgan. Sherobod-Sariqamish past tog'ining janubi g'arbida Kelif-Sherobod past tog'i joylashgan. Surxondaryo tabiiy geografik okrugining sharqida Bobotog' joylashgan. Bu tog' ancha emirilib, pasayib qolgan bo'lib, eng baland Zarkosa cho'qqisi 2289 metrga etadi. Bobotog' g'arbiga, Surxondaryo vodiysiga va janubga qarab asta-sekin pasayib ketadi. Okrugda, yuqorida qayd qilingan tog'lar orasida botiqlar joylashib, neogen va antropogen davri yotqiziqlari bilan to'lgan. Surxondaryo vodiysi shimoli sharqdan janubi g'arbiga taxminan 170 km cho'zilgan bo'lib, shu yo'nalishda pasayib boradi. Shakliga ko'ra vodiylar uchburchakka o'xshash. Uning janubi-g'arbiy qismi keng bo'lib, 110-115 km ga, shimoli sharqi tor bo'lib, 15-20 km ga teng. Okrugda qazilma boyliklardan neft va gaz, ko'mir, polimetall, alumin rudasi, girs, tuz, har xil qurilish material konlari mavjud. Neft va gaz, asosan, Lalmikor, Ko'kaydi, Xovdog'dan, toshko'mir Sharg'undan qazib olinadi. Sariosiyoda polimetall rudasi, aluminiy rudasi, girs, ohak konlari bor. O'zbekistondagi eng katta Xo'jaikon tuz koni shu okrugda joylashgan. Surxondaryo janubida tarkibida har xil erigan moddalar saqlovchi bir necha mineral suvlar topilgan. Ularning eng muhimi Jayronxona mineral suvi hisoblanadi. Surxondaryo-(daryo nomi) rasmiy nom. 1941-yil 6-martda oblast nomiga aylangan.

Voha sharqdan g'arbiga 150-170 km.gacha, shimoldan janubga 220-250 km gacha cho'zilgan bo'lib, uning umumiy hududi 20,1 ming km<sup>2</sup> ni tashkil etib, bu butun O'zbekiston hududining 4,6 foiziga tengdir.

Surxondaryo vohasining iqlimi quruq subtropik. Lekin atrofidagi tog'larga ko'tarilgan sari iqlim o'zgaradi. Okrugning tekislik qismida yoz serquyosh, issiq va quruq, tog'ga tomon harorat pasayib boradi. Qish qisqa va iliq, lekin atrofidagi tog'larda sovuqroq bo'ladi.

Yozda Surxondaryoning tekislik qismi juda isib ketadi. Qish vohaning tekislik qismida iliq bo'ladi. Ba'zan qishda sovuq havo massalari tog'lardan o'tib, tekislik qismi haroratini pasaytirib

yuboradi. Shunday kezlarda havo harorati  $-20 -25^{\circ}\text{C}$  gacha pasayadi. Amudaryo, Surxondaryo va Sherobod daryosining qayir va kuzena qayirlari antropogen davrining qum va shag'allaridan tashkil topgan bo'lib, ularning ustini ancha qalin qumloq loysimon, jinslar qoplab olgan.

Surxondaryo okrugi shimoli-sharqdan janubi-g'arbga taxminan 170 km cho'zilgan. Okrugning shakli uchburchakka o'xshaydi, janubi-g'arbiy qismida esa kengayadi va 110—115 km ga etadi, shimoli-sharqiy qismida esa kengligi atigi 15—20 km dir. Okrugda balandligi 270—550 m keladigan *qiya* tekisliklar ko'p. Lekin toglardan oqib tushadigan ko'pdan-ko'p daryolar, soylar tekislikni parchalab, o'nqir-cho'nqir jarlar hosil qilgan. Surxondaryoning o'ng qirg'og'ida Eski Termiz, Uchqizil (414 m), Zang, Xovdog (557 m), Oqqo'rg'on va chap qirg'og'ida Jayronxona, Kakaydi, Lalmikor (500 m), Oqtog' (750 m) kabi manzaralar bor. Xovdor manzarasi shimolga qarab davom etadi va Qiziriqdara cho'liga tutashib ketadi. Bu cho'l lyosli jinslardan iborat bo'lib, mutloq balandligi 400—500 m ga etadi. Qiziriqdara cho'li va Xovdog' manzarasi Surxondaryo voxasini Sherobod voxasidan ajratib turadi. Sherobod voxasi Sherobod daryosining juda katta yoyilma konusida joylashgan bo'lib, markaziy qismida botqoq bosgan pasroq erlar ham bor. Bu yoyilma konuslar qum va shag'allardan tashkil topgan. Okrugning eng past erlari Amudaryo qayirlarida joylashgan. Bu qayir va ko'xna qayirlar ustida qumoq, qumlar va shag'allardan iborat bulgan allyuvial yotqiziqlar joylashgan.

Okrugning janubiy qismida qumliklar bor. Bulardan eng muhimi Xovdor va Uchqizil manzaralarining sharqidagi Kattaqumdir. Okrugda taqir, sho'rxoklar, Amudaryo soxillarida esa botqoq bosgan erlar uchraydi. Okrugning o'rta qismidan Surxondaryo oqib o'tib, bir necha qayir va ko'xna qayirlarni hosil qilgan. Bu kuzena qayirlarning nisbiy balandliklari 3—12 m ga etadi va ba'zi erlarda tikka kutarilib ketadi. Ular ustini esa qalin (30—90 m) qumoq va loysimon jinslar qoplab olgan. Bu yumshoq jinslar oqar va vaqtli suvlarning ishi tufayli yuvilib, jarlar hosil qilgan. O'zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan tashqari daryolari unchalik loyqa emas. Faqat Surxondaryo va Sherobodda tog'lardan chiqayotganda suv 1 kub metriga 3 kg osilgan moddani olib o'tadi. O'zbekistonning Amudaryo va Sirdaryodan tashqari daryolari unchalik loyqa emas. Faqat Surxondaryo va Sherobodda toglardan chiqayotganda suv 1 kub metriga 3 kg osilgan moddani olib o'tadi.

Xarorati  $+5^{\circ}\text{C}$  dan yuqori bo'lgan kunlarning soni bir yilda 290-320ga teng bo'ladi. Vegetatsiya davri xaroratlar yig'indisi  $5500-5960^{\circ}\text{C}$  bo'ladi. Surxondaryo okrugida baxorgi oxirgi sovuq tushishning o'rtacha muddati 2-15 martlarga, kuzgi birinchi sovuq tushishning o'rtacha muddati esa 20-25 oktyabrlarga to'g'ri kelib sovuq bo'lmaydigan kunlar miqdori 227-266 ga teng.

Surxondaryo okrugi xarorati 0 gradusdan pastga tushmaydigan davr nolga teng vegetatsiyali qish 94-100% ni tashkil qiladi. Bu ko'rsatkich Qashqadaryo okrugida 51-66% ni Quyi Zarafshon okrugida 41-55% Toshkent Mirzacho'l okrugida 33-46% Quyi Amudaryo okrugida 0-4% ni tashkil qiladi. Surxondaryo okrugida bunday qulay iqlimiy sharoit subtropik o'simliklarni o'stirish, ingichka tolali paxta shakarqamish kabi issiqsevar o'simliklarni ekishga imkon beradi.

Vohada asosiy dehqonchilik kichik daryo o'zanlarida amalga oshirilgan. Shunday daryolardan biri Sherobod daryosi tog'liklardan vohaga o'tganda, ayniqsa Amudaryoga quyilish erlariga yaqinlashganda o'nlab o'zanlarga ajralib ketganligini uning quruq o'zanlari tasdiqlaydi. Aynan mana shu o'zanlar bo'ylarida bronza davri yodgorliklari joylashgan. Sherobod vohasi tabiiy sharoitining yana bir xarakterli tomoni shundaki, quyosh o'z nurlarini eng avval Ko'hitang tog'iga taratadi. Bahor, yoz fasllari va kuzning dastlabki oylarida quyosh issig'idan tashqari Ko'hitang tog'idan ham issiq havo oqimi – tafti vohaga ufurib turadi. Tun yarmigacha havoning

tafti qaytmaydi. Bu holat dehqonchilik ekinlarining yaxshi rivojlanishi va serhosil bo'lishiga imkoniyat yaratadi.

Okrug tog'lar orasidagi berk botiqda joylashganligidan yog'in kam (133-360 mm). yog'in miqdori xudud relefining tuzulishiga bog'liq janubiy g'arbdan shimoli-sharqqa tomon ko'payib boradi. Okrugning janubi-g'arbiy tekislik qismida (Termizda) bir yilda 133 mm yog'in tushsa, shimoli sharqiy qismida (Denov tumanida) 360 mm ga etadi. Yog'inning asosiy qismi baxor va qishda (88%) yog'adi, yozda esa yog'in juda kam (2%) tushadi. Yog'inning bir qismi qor holda ham tushadi, lekin u uzoq saqlanmaydi. Qor okrugda ba'zi yillari umuman yog'maydi, ba'zi yillari 15-kundan 23-kungacha qor yog'ib qalinligi 1-2-smga etib 7 kun erimay turishi mumkin. Okrugda g'arbiy janubi-g'arbiy va shimoli-sharqiy qismida shamollar eng ko'p esadi. Shamollarning tezligi bir-xil emas o'rtacha tezligi sekundiga 2.6m. Ammo ba'zan tezligi sekundiga 15 m dan oshadigan kuchli shamollar ham bo'lib turadi. Okrug janubi-sharqiy qismining iqlimiga janubi-g'arbdan esuvchi quruq chang, to'zonli "afg'on" shamoli salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bu shamol soatlab xatto sutkalab esib qishloq xo'jaligi ekinlariga katta zarar etkazadi.

Surxondaryo vohasida yog'inlar notekis taqsimlangan. Vohaning janubidagi tekisliklarga eng kam yog'in (yiliga 133-230 mm) tushadi. Surxondaryo tabiiy geografik okrugida uzunligi 20 km dan ortiq bo'lgan 35 ta daryo mavjud. Bu daryolar ichida eng kattalari Surxondaryo va Sherobodaryo hisoblanadi.

Surxondaryo havzasiga kiradigan asosiy daryolar To'polondaryo, Qoratog', Sangardak, Xo'jaipok daryolaridir.

Surxondaryo To'polondaryo bilan Qoratog' daryolarining qo'shilishidan vujudga keladi. Surxondaryo Amudaryoning o'ng irmog'i, chapdan Qoratog'daryo, Qorasuv, o'ngdan To'polondaryo Tentaksoy qo'shilgandan so'ng Surxon deb ataladi. Tojikcha surx-qizil, qizg'ish rang, + on-ob-suv, daryo. Surxob-qizil suv, qizg'ish tuproqli suv, "Surxi" qabilasi nomi bilan ham "surxiyon"-surxonlar daryosi deb ham izohlashadi. O'rta asr manbarida u "Chag'onrud" deyilgan. Surxondaryoning To'polondaryo va Qoratog'daryo qo'shilgan eridan Amudaryogacha bo'lgan qismida 60 ga yaqin soylarga qo'shiladi. Bu soylarning eng muhimlari Toshko'priksoy, Oqqopsoy, Sho'rchisoy, Quruqsoy, Lalmikorsoy, va Lovlovsoylardir. Bundan tashqari uning Sangardaksoy va Xo'jaipok kabi katta irmoqlari bor. Surxondaryo To'polon bilan Qoratog' daryolarining qo'shilgan eridan Amudaryogacha 196 km. Akademik Yaxyo G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" kitobida "Amudaryoga Surxon kelib qo'shilgan joyning quyidan boshlab u hech qanday irmoqsiz jazirama sahrolar ichidan oqa boshlaydi va shu erdan uning hayotbaxsh faoliyati boshlanadi" deb so'z yuritgan. Shu masofada o'ng tomondan Sangardak va Xo'jaipok irmoqlarini qo'shib oladi. Surxondaryo, asosan, qor-muzlarning erishidan to'planib, o'rtacha ko'p yillik suv sarfi Qorovultepa qishlog'i yonida sekundiga 70,2 m.kub ni tashkil etadi, eng katta suv sarfi sekundiga 600 m.kub, eng kami sekundiga 0,1 m.kub. Akademik Yaxyo G'ulomov "Xorazmning sug'orilish tarixi" kitobida "Amudaryoga Surxon kelib qo'shilgan joyning quyidan boshlab u hech qanday irmoqsiz jazirama sahrolar ichidan oqa boshlaydi va shu erdan uning hayotbaxsh faoliyati boshlanadi" deb so'z yuritgan. Geograf Qorievning yozishicha Amudaryoga o'ng tomondan Kofirnihon, Surxondaryo va Sherobodaryo qo'shiladi. Amudaryoning shu eridan to Orol dengizga quyilguncha qariyb 1500 km uzunlikdagi sahroga unga bitta ham irmoq qo'shilmaydi. Bu qismida uning suvi bug'lanib, erga shimishib, sug'orishga sarf bo'lib, tobora kamayib boradi.

**To'polondaryo** Surxondaryoning eng katta va eng sersuv irmog'i, Hisor tog'idagi "Xazrati Sulton" (4643 m) cho'qqisi yaqinidan "Qorasuv" nomi bilan boshlanib, so'ngra "Tamshush" nomini oladi va "G'ova" irmog'ini qo'shib olgach To'polondaryo nomini oladi. So'ngra unga "Shatrut" va "Dashnabod" irmoqlari qo'shiladi. To'polondaryoning uzunligi 112 km, havzasining maydoni 2200 km<sup>2</sup>. Daryo qor-muz suvidan to'yinib, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 51.9 m<sup>3</sup>. O'shani 60.8 % mart-iyun oyida, 28.6 iyul-sentyabr oyida, 10.6% oktyabr-fevral oyida oqib o'tadi.

**Qoratog' daryosi** Hisor tog'ining 4200 m balandlikdagi janubiy yonbag'ridan shu nom bilan boshlanadi. Uning uzunligi 95 km. Xavzasining maydoni 682 km<sup>2</sup>. Daryo qor-muz suvidan to'yinib o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 56.3 m<sup>3</sup>. O'shani 56.5 % mart-iyun oyida, 32.2 iyul-sentyabr oyida, 11.3% oktyabr-fevral oyida o'tkazadi. Daryoning asosiy irmoqlari Sherkent va Oqjarsoy hisoblanadi.

**Sangardak daryosi** Hisor tog'idan "Tegiqonor" nomi bilan boshlanib, Qizilsoy irmog'ini qo'shib olgach "Qizilsuv", so'ngra Sangardak nomini oladi. Daryoning uzunligi 114 km, xavzasining maydoni 948 km<sup>2</sup> bo'lib qor va yomg'ir suvlaridan to'yinadi. O'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 17.1 m<sup>3</sup>. O'shani 68 % mart-iyun oyida, 19.2 iyul-sentyabr oyida, 12.8% oktyabr-fevral oyida oqib o'tadi. Asosiy o'ng irmoqlari-Qizilsoy, Sho'rchisoy, Molyang'ur; chap irmoqlari -Xondiza, Nilu hisoblanadi.

**Xo'jaipok**-Xo'jabo'zborak tog'idan boshlanib, uzunligi 97 km, xavzasining maydoni 765 km<sup>2</sup>, o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 8.17 m<sup>3</sup>. O'shaning 79.4 mart-iyun oyida oqib o'tadi. Asosiy irmoqlari Shotut va Cho'ldara.

Sheroboddaryo-Amudaryoning o'ng irmog'i bo'lib, uzunligi 186 km, Boysun tizmasining shimoli g'arbidagi "Belao'ta" tog'idan boshlanadi. Daryoga o'ng tomondan Qizilsoy, O'riklisoy, Sariqiya, Sho'rob, Sayrob, Laylayxonsoy, Maydon, chapdan esa Ko'kamir, Chaqmoq, Jugun, Sharshar kabi irmoqlar qo'shiladi. Daryoning o'rtacha yillik suv sarfi sekundiga 7.53 m<sup>3</sup>. Daryo suvi bahor va yoz oylarida ko'payadi. Yillik suv sarfining 62 % shu davrga to'g'ri keladi. Bu daryolar tog'larda chuqur, tor vodiylarda ostona hamda sharsharalar hosil qilib oqadi. Tekislikka chiqqandan so'ng sekinlashib, sug'orishga sarflanadi. Yerosti suvlari har xil davr yotqiziqlari orasida uchraydi. Paleogen va neogen davri yotqiziqlari orasidagi 140—150 m chuqurlikdan chuchuk suv chiqadi. Bo'r davri yotqiziqlari orasidagi 1000 —2000 m chuqurlikdan chiquvchi mineral shifobaxsh suv harorati +60 +70°C ga etadi. Surxondaryo tabiiy geografik o'lkasida suv ta'minotini yaxshilash maqsadida Janubiy Surxon (suv sig'imi 800 mln m.kub), Uchqizil (suv sig'imi 16 mln m.kub) suv omborlari qurilgan.

Okrugning ikkinchi muhim daryosi Sheroboddaryodir. U Amudaryoning o'ng oxirgi irmog'i hisoblanib Irgali va Qizilsoydaryolarning qo'shilishidan hosil bo'ladi. Daryoning umumiy uzunligi 186 km O'rtacha ko'p yillik suv sarfi tog'dan oqib chiqqach 7.5 m<sup>3</sup> sek teng bo'ladi. Voha suv bilan ta'minlanishiga ko'ra 2 zonaga (shimoliy va janubiy) ajratish mumkin. Shimoliy zonadagi daryolar sersuv ularga asosan To'palang, Sangardak, Xo'jaipok va boshqalar kiradi. Bu daryolar Xisor tog'ining sharqiy yonbag'irlaridagi qor va muzliklardan qisman yomg'ir va buloq suvlaridan to'yinadi. Vohaning janubiy qismi daryolarida suv kam xududda Sheroboddardan tashqari doimiy oqadigan daryolar yo'q. Buning asosiy sababi viloyatning janubiy-g'arbiy qismida qor va muzliklar bilan qoplangan baland tog'larning yo'qligi, mavjud tog'larning esa nisbatan pastligi yog'in sochin keltiradigan xavo massalarini to'sish imkoniyati kamligidir. Curxon-Sherobod voxasi dexqonchiligida sug'oriladigan erlar obi (suniy) va lalmi (tabiiy yog'inlar)ga bo'linib, vohaning tabiiy geografik sharoiti qishloq xo'jaligi yo'nalishida

mintaqaga bo'linadi: ya'ni to'la sug'oriladigan (daryo vohasi) shartli sug'oriladigan (tog'oldi) lalmikor (tog' zonalar).

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Nafasov T.O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati.T.,—O'qituvchi,1988., B-170.
2. Baratov P. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. - T.: O'qituvchi, 1996. B-114, 239-240
3. T.Xoliyarov. Shimoliy baqtriyaning tarixiy geografiyasi. Monografiya. Termiz – 2023.B-17
4. G'ulomov.Y “Xorazmning sug'orilish tarixi Qadimgi zamonlardan hozirgacha.O'zb SSR Fanlar Akademiyasi nashriyoti.Toshkent 1950-yil 21-b.
5. Qoriyev.M “O'rta Osiyo tabiiy gografiyasi” O'zSSR davlat o'quv-pedagogika nashriyoti” Toshkent.1954.B-171
6. Qobulov.E.A Surxon voxasi xo'jaligi Toshkent “Akademnashr” 2012 B-112